

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 11 | **pp.** 69-80 | **ISSN**: 2181-1865
Available online https://finance.tsue.uz/index.php/afa

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA DIVIDEND SIYOSATINI BOSHQARISHNING INTELLEKTUAL TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH



Begalov Abdukadir Abdusalomovich
"International School of Finance Technology and Science"
Instituti "Buxgalteriya hisobi" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida dividend siyosatini shakllantirish va amalga oshirish jarayonlarini intellektual boshqaruv tizimlari asosida takomillashtirishning nazariy-uslubiy hamda amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish, kapital yetarliligini saqlash va dividend to'lovlari bo'yicha samarali qarorlar qabul qilishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), prognozlash modellari va avtomatlashtirilgan tahlil vositalaridan foydalanish orqali dividend siyosatini boshqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlari asoslangan.*

Kalit so'zlar: *raqamli iqtisodiyot, tijorat banklari, dividend siyosati, intellektual boshqaruv tizimi, sun'iy intellekt, Big Data, bank kapitali, moliyaviy barqarorlik, korporativ boshqaruv, dividend daromadliligi.*

Аннотация. *В данном тезисе исследованы теоретико-методологические и практические аспекты совершенствования процессов формирования и реализации дивидендной политики коммерческих банков в условиях цифровой экономики на основе интеллектуальных систем управления. Раскрыта роль цифровых технологий в обеспечении финансовой устойчивости банков, защите интересов акционеров, поддержании достаточности капитала и принятии эффективных решений по выплате дивидендов. Кроме того, обоснованы направления повышения эффективности управления дивидендной политикой посредством применения искусственного интеллекта, технологий больших данных (Big Data), прогнозных моделей и автоматизированных инструментов анализа.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, коммерческие банки, дивидендная политика, интеллектуальная система управления, искусственный интеллект, Big Data, банковский капитал, финансовая устойчивость, корпоративное управление, дивидендная доходность.*

Abstract. *This paper examines the theoretical, methodological, and practical aspects of improving the formulation and implementation of dividend policies in commercial banks under the conditions of the digital economy through the application of intelligent management systems. It highlights the role of digital technologies in ensuring banks' financial stability, protecting shareholders' interests, maintaining capital adequacy, and facilitating effective decision-making regarding dividend payments. Furthermore, the paper identifies and substantiates approaches to enhancing the efficiency of dividend policy management through the application of artificial intelligence, Big Data technologies, forecasting models, and automated analytical tools.*

Keywords: *digital economy, commercial banks, dividend policy, intelligent management systems, artificial intelligence, Big Data, bank capital, financial stability, corporate governance, dividend yield.*

Kirish

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi moliya-bank tizimining institutsional va iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, bank faoliyatida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, balki moliyaviy resurslarni boshqarish, kapital tarkibini optimallashtirish, investitsion jozibadorlikni mustahkamlash va korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish uchun ham yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda.

Tijorat banklari faoliyatida dividend siyosati alohida iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, u bankning sof foydasini taqsimlash, aksiyadorlar manfaatlarini ta’minlash, kapitalni ko‘paytirish va kelgusidagi rivojlanish strategiyasini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bilan bevosita bog‘liqdir. Dividend siyosati orqali bankning joriy moliyaviy natijalari bilan uning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlari o‘rtasidagi muvozanat ta’minlanadi.

An’anaviy dividend siyosatini shakllantirishda, asosan, bankning sof foydasi, kapital yetarliligi, likvidlilik darajasi, taqsimlanmagan foyda miqdori va aksiyadorlarning kutilmalari hisobga olinadi. Biroq zamonaviy sharoitda ushbu ko‘rsatkichlarni alohida-alohida tahlil qilish yetarli emas. Chunki bankning moliyaviy holatiga makroiqtisodiy o‘zgarishlar, kredit portfeli sifati, foiz stavkalari, valyuta kurslari, moliyaviy risklar va raqobat muhiti ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli iqtisodiyot sharoitida dividend siyosatini boshqarishning intellektual tizimlarini ishlab chiqish va takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Bunday tizimlar bankning moliyaviy ko‘rsatkichlarini kompleks tahlil qilish, dividend to‘lovlarining muqobil ssenariylarini shakllantirish, ehtimoliy risklarni baholash hamda iqtisodiy jihatdan asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida dividend siyosatini boshqarishning intellektual tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun dividend siyosatining nazariy asoslarini o‘rganish, uning moliyaviy barqarorlikka ta’sirini baholash, raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash hamda intellektual qaror qabul qilish mexanizmini taklif etish vazifalari belgilandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Tijorat banklarida dividend siyosatini shakllantirish va boshqarish masalalari korporativ moliya, moliyaviy menejment hamda bank kapitalini boshqarish nazariyalarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarda dividend to‘lovlarining korxona va banklarning bozor qiymatiga, investitsion jozibadorligiga, moliyaviy barqarorligiga hamda aksiyadorlar manfaatlariga ta’siri turli nazariy yondashuvlar asosida o‘rganilgan.

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko‘rsatadiki, mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni shartli ravishda uchta asosiy guruhga ajratish mumkin. Birinchisi, tijorat banklarida dividend siyosatini shakllantirish va takomillashtirish; Ikkinchisi, dividend

to‘lovlarining bank kapitali, moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligiga ta’siri; Uchinchisi, raqamli texnologiyalar va intellektual tahlil vositalarini moliyaviy boshqaruv jarayonlariga integratsiyalash masalalaridir.

Jumladan, M. Belloni, M. Grodzicki va M. Jarmuzek Yevropa Markaziy bankining “What makes banks adjust dividend payouts?” nomli tadqiqotida tijorat banklarining dividend to‘lovlarini o‘zgartirishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rgangan[1]. Fikrimizcha, mualliflar panel ma’lumotlar tahlili asosida dividend siyosatiga axborot nomutanosibligi, agentlik xarajatlari va prudensial tartibga solish talablari ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan. Tadqiqotda bank foydasi va kapitali pasaygan sharoitda dividend to‘lovlarini qisqartirish tendensiyasi asoslangan. Ushbu ilmiy ish dividend siyosatini bank kapitali va moliyaviy barqarorlik bilan uzviy bog‘liq holda boshqarish zarurligini ko‘rsatadi.

T. Alhalabi, V. Castro va J. Wood “Bank dividend payout policy and debt seniority: Evidence from US Banks” nomli tadqiqotida AQSH tijorat banklarida dividend to‘lovlari va kreditorlar manfaatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilgan[2]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, banklarning depozitorlari va kreditorlari dividend siyosatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Mualliflar tadqiqotda moliyaviy barqarorlik bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lgan banklarda depozitorlarning nazorat ta’siri kuchayishini aniqlagan. Mazkur tadqiqot dividend siyosatini shakllantirishda faqat aksiyadorlar manfaatlarini emas, balki bankning boshqa manfaatdor tomonlari talablarini ham hisobga olish zarurligini asoslaydi.

L. Gambacorta, T. Oliviero va H.S. Shin “Low price-to-book ratios and bank dividend payouts: economic policy implications” nomli ilmiy maqolasida banklarning bozor qiymati va dividend to‘lovlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq etgan[3]. Mualliflar ko’plab bank ma’lumotlarini tahlil qilish orqali bozor qiymati va balans qiymati nisbati past bo‘lgan banklarda dividend to‘lovlariga moyillik yuqoriroq bo‘lishini aniqlagan. Shuningdek, dividendlarni cheklash banklarning kreditlash salohiyatini saqlab qolishga xizmat qilishi mumkinligi asoslangan.

A. Rawal va S. Gopalkrishnan Hindistonning 31 ta banki misolida moliyaviy qiyinchiliklarning dividend siyosatiga ta’sirini panel tahlil usuli orqali o‘rgangan[4]. Tadqiqotda banklarning moliyaviy holati, kapital tarkibi va dividend to‘lovlari o‘rtasidagi bog‘liqlik asoslangan.

H. Herrmann va B. Masawi bank va moliya sektorida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish tendensiyalarini o‘rgangan[5]. Tadqiqotda mashinaviy o‘rganish va intellektual algoritmlarning moliyaviy risklarni baholash hamda boshqaruv qarorlarini takomillashtirishdagi ahamiyatini asoslagan. Fikrimizcha mazkur ilmiy ish tijorat banklarida dividend siyosatini boshqarish jarayonlariga sun’iy intellekt va raqamli tahlil vositalarini tatbiq etish uchun nazariy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

[1] Belloni M., Grodzicki M., Jarmuzek M. What makes banks adjust dividend payouts? // ECB Macroprudential Bulletin. – 2021. – No. 13.

[2] Alhalabi T., Castro V., Wood J. Bank dividend payout policy and debt seniority: Evidence from US Banks // Financial Markets, Institutions & Instruments. – 2023. – Vol. 32. – P. 285–340. DOI: 10.1111/fmii.12183.

[3] Gambacorta L., Oliviero T., Shin H.S. Low price-to-book ratios and bank dividend payouts: economic policy implications // Economic Policy. – 2023. – Vol. 38, Issue 115. – P. 675–701. DOI: 10.1093/epolic/eiad028.

[4] Rawal A., Gopalkrishnan S. Impact of financial distress on the dividend policy of banks in India: evidence using panel data // Future Business Journal. – 2024. – Vol. 10. – Article 27. DOI: 10.1186/s43093-024-00310-y.

[5] Herrmann H., Masawi B. Three and a half decades of artificial intelligence in banking, financial services, and insurance: A systematic evolutionary review // Strategic Change. – 2022. – Vol. 31, Issue 6. – P. 549–569. DOI: 10.1002/jsc.2525.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlarning ham tanlangan tadqiqot mavzusi doirasidagi ilmiy izlanishlarida tijorat banklarida dividend siyosatini tashkil etish, foydani taqsimlash, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish va banklarning investitsion jozibadorligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Mahalliy olimlarimizdan A. Temirov o‘zining ilmiy ishlarida tijorat banklarida dividend siyosatining korporativ boshqaruv tizimidagi o‘rnini tadqiq etgan. Muallif dividend siyosatini shakllantirish tamoyillari, dividendlarni to‘lash shakllari va tijorat banklarida foydani taqsimlash amaliyotini tahlil qilgan[6]. Tadqiqotda dividend siyosatining bank faoliyatidagi ahamiyati va uning aksiyadorlar manfaatlarini ta’minlashdagi roli ochib berilgan. Mazkur ishning ilmiy ahamiyati shundaki, unda O‘zbekiston tijorat banklarining amaliy faoliyati asosida dividend siyosatining mavjud tendensiyalari yoritilgan.

A. Abdiraxmonov ilmiy tadqiqotlarida tijorat banklarida dividend siyosatini shakllantirishda sof foyda, dividend to‘lovlari va bankning moliyaviy holatini hisobga olish jihatlarini o’rgangan[7]. Fikrimizcha, muallifning yondashuvida dividend siyosatining investitsion jozibadorlikka ta’siri bank foydasini aksiyadorlar va bankning rivojlanish ehtiyojlari o‘rtasida taqsimlash bilan izohlanadi. Mazkur yondashuvni rivojlantirish maqsadida dividend miqdorini belgilashda sof foyda bilan bir qatorda kapital yetarliligi, likvidlilik, muammoli kreditlar ulushi va kelgusi investitsion ehtiyojlarni kompleks baholashga asoslangan mexanizmni joriy etish zarur. Bunda dividend to‘lovlari bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan darajada belgilanishi lozim.

D. Ubaydullayevning tadqiqotlarida banklarning kapital bozoridagi faoliyati, aksiyalar va obligatsiyalar orqali moliyaviy resurslarni jalb etish, qimmatli qog‘ozlar daromadliligi va likvidlilik masalalarini tadqiq qilgan[8]. Xususan, Ipotekabank OTP misolida dividend to‘lovlari amaliyoti tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot dividend siyosatini bankning kapital bozoridagi ishtiroki va moliyaviy resurslarni boshqarish strategiyasi bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

N. Sherkuziyevaning ilmiy ishida mamlakatimiz tijorat banklarida dividend siyosatining amaldagi holatini o‘rgangan. Muallif Ipotekabank ATIB, O‘zsanoatqurilishbank ATB va Mikrokreditbank ATB misolida dividend to‘lovlarini tahlil qilgan hamda dividend siyosatining nazariy asoslarini amaliy ko‘rsatkichlar bilan bog‘lagan[9]. Bizning fikrimizcha ushbu tadqiqotning ahamiyatli tomoni shundaki, unda dividend siyosatining banklar kesimidagi farqli xususiyatlari va mavjud amaliyotga xos jihatlar yoritilgan.

F. Abduraimova ilmiy ishlarini tahlilini ko’radigan bo’lsak, muallif tadqiqotlarida taqsimlanmagan foyda va dividend siyosatining bank kapitalini shakllantirishdagi o‘zaro bog‘liqligini o‘rgangan[10]. Muallif dividend siyosati turlarining bank kapitallashuviga

[6] Temirov A. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2023. – № 9.

[7] Abdiraxmonov, A. (2024). Tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishda dividend siyosatining o‘rni. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 2(11). https://doi.org/10.5281/zenodo.14380307

[8] Ubaydullayev , D. (2024). Tijorat banklari dividend siyosati va obligatsiyalar bo‘yicha foiz siyosati tahlili. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 2(12). https://doi.org/10.5281/zenodo.15161825

[9] Sherkuziyeva N.A. Tijorat banklarida dividend siyosatining joriy holati // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – № 4. – B. 21–26. – DOI: 10.5281/zenodo.15465556

[10] Abduraimova F. Tijorat banklarining kapital bazasini mustahkamlashda zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanishni takomillashtirish // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2026. – T. 4, № 9. – B. 173–179. – DOI: 10.5281/zenodo.22742044

ta’sirini tahlil qilib, foydani kapitallashtirish va aksiyadorlarga dividend to‘lash o‘rtasidagi muvozanat masalasini yoritgan. Tadqiqotimiz doirasida dividend siyosatini bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlash vositasi sifatida ko‘rib chiqishi bilan ushbu muallifning ishi ahamiyatli hisoblanadi.

Yuqoridagi mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarida dividend siyosatini takomillashtirish masalasi bir nechta iqtisodiy va institutsional omillar bilan uzviy bog‘liq. Mahalliy tadqiqotlarda asosan dividend to‘lovlarining amaldagi holati, banklarning investitsion jozibadorligi, foydani taqsimlash va kapitallashuv masalalariga e’tibor qaratilgan. Xorijiy tadqiqotlarda esa dividend to‘lovlariga ta’sir etuvchi moliyaviy risklar, kapital yetarliligi, kreditorlar manfaatlari, bozor qiymati va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalalari kengroq o‘rganilgan.

Shu bilan birga, o‘rganilgan ilmiy manbalar tahlili tijorat banklarida dividend siyosatini boshqarishning quyidagi yo‘nalishlari bo‘yicha qo‘shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi:

1. Banklarning moliyaviy ko‘rsatkichlari, kapital yetarliligi va dividend to‘lovlarini yagona intellektual boshqaruv tizimida integratsiyalash.
2. Sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish algoritmlari asosida dividend to‘lovlarining optimal miqdorini prognozlash.
3. Dividend siyosatini shakllantirishda makroiqtisodiy o‘zgarishlar, bank risklari va kapitalga bo‘lgan kelgusi ehtiyojni hisobga oluvchi ssenariyli modellarni ishlab chiqish.
4. Banklarning dividend siyosati samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi raqamli indikatorlar va integral indekslarni shakllantirish.
5. Dividend siyosati bo‘yicha boshqaruv qarorlarining shaffofligi, ishonchliligi va iqtisodiy asoslanganligini oshirish.

Bizning tadqiqot ishimizning boshqa ilmiy ishlardan farqli jihati tijorat banklarida dividend siyosatini an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida baholash bilan cheklanmasdan, uni sun’iy intellekt, Big Data va prognozlash texnologiyalariga asoslangan intellektual boshqaruv tizimi orqali takomillashtirishga yo‘naltirilganligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil, korrelyatsion-regression tahlil hamda prognozlash usullaridan foydalaniladi. Tijorat banklarining dividend siyosati samaradorligi dividend to‘lovlari koeffitsiyenti, dividend daromadliligi, sof foyda, kapital yetarliligi va bankning moliyaviy barqarorligi ko‘rsatkichlari asosida baholandi. Shuningdek, sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalari yordamida dividend to‘lovlarini prognozlash, bankning kapitallashuv ehtiyojlarini aniqlash hamda dividend siyosati bo‘yicha maqbul boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish imkoniyatlari tadqiq etildi.

Tahlil va natijalar

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida dividend siyosatini samarali boshqarish banklarning moliyaviy natijalari, kapital yetarliligi va aksiyadorlar manfaatlari o‘rtasidagi iqtisodiy muvozanatni ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir. Nazariy jihatdan dividend siyosati bank sof foydasining aksiyadorlarga taqsimlanadigan va bank ixtiyorida

reinvestitsiya uchun qoldiriladigan qismlari nisbatini belgilovchi strategik moliyaviy boshqaruv vositasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining 2021–2025-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlili bank aktivlari va kapitali hajmining o‘sishi bilan bir qatorda sof foyda dinamikasida ham muayyan tebranishlar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bu esa dividend siyosatini shakllantirishda an’anaviy moliyaviy tahlil usullari bilan cheklanib qolmasdan, bank faoliyatiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni kompleks baholash, kelgusi moliyaviy natijalarni prognozlash hamda dividend to‘lovlarining optimal miqdorini aniqlash imkonini beruvchi intellektual boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi. Quyida dividend siyosatining mamlakat bank sektoridagi umumiy tendensiyalarini aniqlash va intellektual boshqaruv tizimlarini joriy etish zaruratini asoslash uchun O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi bo‘yicha 2021–2025-yillardagi umumlashtirilgan statistik tahlil keltirilgan. Ma’lumotlar barcha tijorat banklari faoliyatini qamrab olingan.

1-jadval.

O‘zbekiston tijorat banklarining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari dinamikasi yil yakuniga, *trln so‘mda*[11]

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
Jami aktivlar	444,9	556,7	650,5	769,3	892,9
Jami kapital	71,0*	79,6	97,1	113,0	133,1
Sof foyda	3,9	10,0	12,4	7,0	15,5
Sof foydaning o‘sish sur’ati, %	–	156,4	23,8	-43,4	121,4

*Izoh: 2021-yil kapitali taxminiy yaxlitlangan qiymat. Sof foyda bo‘yicha 2021-yil qiymati 2022-yilgi 10 trln so‘mlik natija va uning 6,1 trln so‘mlik o‘sishidan kelib chiqib hisoblangan. 2025-yil ma’lumoti 15,5 trln so‘m sifatida e’lon qilingan. Aktivlar va kapital bo‘yicha yillik kesimdagi ayrim qiymatlar statistik manbalarda yaxlitlangan.

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2021–2025-yillarda O‘zbekiston tijorat banklari tizimining jami aktivlari 444,9 trln so‘mdan 892,9 trln so‘mga yetib, qariyb 2 barobar oshgan. Banklarning jami kapitali ham 71 trln so‘m atrofidagi qiymatdan 133,1 trln so‘mga ko‘tarilgan. Bu holat bank tizimining moliyaviy resurslari va kapital bazasi kengayib borayotganligini ifodalaydi.

Sof foyda dinamikasi esa barqaror o‘sish tendensiyasiga ega emas. Xususan, 2022-yilda bank tizimining sof foydasi qariyb 10 trln so‘mni, 2023-yilda 12,4 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 7 trln so‘mgacha pasaygan. 2025-yilda esa 15,5 trln so‘mga yetgan. Bu esa banklar foydasini taqsimlash va dividend to‘lovlarini rejalashtirishda prognozlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining 2021–2025-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlili tijorat banklari aktivlari va kapitalining izchil kengayib borayotganligini, biroq sof foyda dinamikasida sezilarli tebranishlar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda dividend siyosatini boshqarishda faqat hisobot davridagi moliyaviy natijalarga tayanish yetarli emas.


[11] Markaziy bank statistik ma’lumotlari, Tijorat banklarining 2020–2025-yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari, Markaziy bankning 2024-yilgi hisoboti va 2025-yil bank tizimi moliyaviy natijalari ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Shu sababli tijorat banklarida intellektual boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Bank tizimining sof foydasini sun'iy intellekt va ekonometrik modellar asosida prognozlash.
2. Dividend to'lovlarining optimal miqdorini bank kapitali va moliyaviy barqarorligidan kelib chiqib aniqlash.
3. Dividend va reinvestitsiya o'rtasidagi maqbul nisbatni shakllantirish.
4. Aksiyadorlar manfaatlari va bankning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini muvofiqlashtirish.
5. Dividend siyosati bo'yicha muqobil boshqaruv qarorlarini avtomatlashtirilgan tarzda baholash.

Dividend siyosati tijorat banklarida sof foydani taqsimlash, undan aksiyadorlarga dividend to'lovlarini amalga oshirish hamda bank faoliyatining keyingi rivojlanishi uchun reinvestitsiya qilinadigan foyda ulushini belgilashga xizmat qiluvchi muhim moliyaviy boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Mazkur siyosatning iqtisodiy mohiyati aksiyadorlarning investitsiyalardan joriy daromad olishga bo'lgan manfaatlarini bankning kapital bazasini mustahkamlash, moliyaviy barqarorligini ta'minlash va uzoq muddatli strategik rivojlanish maqsadlari bilan o'zaro muvofiqlashtirishdan iborat. Shu jihatdan, dividend siyosatining samarali tashkil etilishi bankning foydani taqsimlash bo'yicha optimal nisbatlarini shakllantirish, kapital yetarliligini saqlash, investitsion jozibadorligini oshirish hamda aksiyadorlar qiymatini uzoq muddatli istiqbolda maksimallashtirishning muhim omili hisoblanadi.

Tijorat banklarida dividend siyosatini samarali tashkil etish quyidagi o'zaro bog'liq yo'nalishlarni qamrab oladi (1-rasm):



1-rasm. Tijorat banklarida dividend siyosatini samarali tashkil etish quyidagi o'zaro bog'liq yo'nalishlari[12]

[12] Muallif ishlanmasi

Mazkur yo‘nalishlar dividend siyosatini faqat foydani taqsimlash vositasi sifatida emas, balki bankning umumiy moliyaviy strategiyasini amalga oshiruvchi muhim boshqaruv instrumenti sifatida baholash imkonini beradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu jarayonning o‘ziga xos jihati shundaki, dividend siyosati bo‘yicha qarorlar real vaqt rejimida shakllantiriladigan moliyaviy axborotlar, avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari va prognozlash algoritmlariga asoslanishi mumkin. Masalan, an’anaviy boshqaruvda dividend miqdori asosan hisobot davri yakunida olingan sof foyda va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qarorlari asosida belgilanadi. Intellektual boshqaruv tizimida esa bankning joriy moliyaviy holati, kelgusi davr foyda prognozi, kapitalga bo‘lgan ehtiyoj, kredit risklari va makroiqtisodiy o‘zgarishlar birgalikda tahlil qilinadi.

Intellektual boshqaruv tizimi turli axborot manbalaridan olinadigan ma’lumotlarni kompleks yig‘ish, tizimlashtirish, qayta ishlash, tahlil qilish va prognozlash asosida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish hamda ularning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan zamonaviy raqamli texnologiyalar va algoritmlar majmuasini ifodalaydi. Mazkur tizimlar sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), mashinaviy o‘qitish va avtomatlashtirilgan tahlil vositalaridan foydalanish orqali boshqaruv jarayonlarining tezkorligi, aniqligi va natijadorligini ta’minlash imkonini beradi.

Tijorat banklari faoliyatida intellektual boshqaruv tizimlarini joriy etish dividend siyosatini shakllantirish va amalga oshirish jarayonlarini takomillashtirish, foydani taqsimlash bo‘yicha muqobil variantlarni baholash, dividend to‘lovlari hajmini prognozlash hamda bankning moliyaviy barqarorligi va kapital yetarliligini hisobga olgan holda optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Xususan, mazkur tizimlardan foydalanish dividend siyosatini boshqarishning quyidagi tarkibiy yo‘nalishlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Birinchidan, Big Data texnologiyalari bankning katta hajmdagi moliyaviy va nomoliyaviy ma’lumotlarini integratsiyalash hamda tahlil qilish imkonini beradi. Bunda, bankning moliyaviy hisobotlari, sof foyda va rentabellik ko‘rsatkichlari, kredit portfeli va muammoli kreditlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, kapital yetarliligi va likvidlilik ko‘rsatkichlari, aksiyadorlar tarkibi va dividend to‘lovlari tarixi, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va fond bozoridagi aksiyalar qiymati va investorlar faolligi kabi axborot manbalaridan foydalanish mumkin.


Mazkur ma’lumotlarni yagona axborot bazasida birlashtirish dividend siyosatiga ta’sir qiluvchi omillarni kompleks baholash imkonini yaratadi.

Ikkinchidan, sun’iy intellekt algoritmlari bankning tarixiy moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida kelgusi davr foydasini, kapitalga bo‘lgan ehtiyojni va dividend to‘lash imkoniyatlarini prognozlashda qo‘llanilishi mumkin. Masalan, mashinaviy o‘rganish algoritmlari quyidagi bog‘liqliklarni aniqlashga xizmat qiladi:

— sof foyda va dividend to‘lovlari o‘rtasidagi munosabat;
— kredit portfeli sifati va dividend to‘lash imkoniyati;
— kapital yetarliligi va foydani reinvestitsiyalash darajasi;
— iqtisodiy o‘sish va bank rentabelligi o‘rtasidagi bog‘liqlik;
— dividend siyosatining aksiyalar investitsion jozibadorligiga ta’siri.

Bunda sun’iy intellekt dividend miqdorini mustaqil belgilovchi vosita emas, balki bank boshqaruvi va vakolatli organlar uchun muqobil qarorlarni tahlil qiluvchi yordamchi mexanizm sifatida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, prediktiv tahlil tarixiy va joriy ma’lumotlar asosida kelajakdagi moliyaviy natijalarni baholashga qaratilgan. Tijorat banklarida ushbu texnologiya dividend siyosatining turli iqtisodiy sharoitlardagi natijalarini oldindan aniqlash imkonini beradi. Masalan, bank tomonidan dividend to‘lovlari ulushi oshirilgan taqdirda kapital yetarliligi, likvidlilik va kreditlash imkoniyatlari qanday o‘zgarishi mumkinligi turli ssenariylar asosida baholanadi.



2-rasm. Tijorat banklarida dividend siyosatini boshqarishning intellektual modeli[13]

To‘rtinchidan, avtomatlashtirilgan qarorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimlari bankning moliyaviy ko‘rsatkichlarini belgilangan mezonlar asosida baholaydi va dividend siyosatining bir nechta muqobil variantlarini shakllantiradi. Masalan:

- konservativ dividend siyosati – foydaning katta qismini bank kapitalida saqlab qolish;

[13] Olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan

- muvozanatlashgan dividend siyosati – aksiyadorlarga dividend to‘lash va foydani reinvestitsiyalash o‘rtasida muvozanatni ta’minlash;
- faol dividend siyosati – tegishli kapital va prudensial cheklovlar doirasida aksiyadorlarga dividend to‘lovlarini oshirish. Ushbu variantlarning har biri moliyaviy barqarorlik, kapital yetarliligi va bankning strategik rivojlanish maqsadlari nuqtayi nazaridan baholanishi lozim.

Shunga muvofiq olib borilgan tadqiqotlarimiz doirasida tijorat banklarida dividend siyosatini boshqarishning quyidagi intellektual modelini taklif etamiz (2-rasm).

Taklif etilayotgan modelning muhim jihati shundaki, dividend siyosatini boshqarish jarayoni alohida moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida emas, balki o‘zaro bog‘liq iqtisodiy omillar tizimi asosida amalga oshiriladi. Ushbu modelda birinchi navbatda bankning moliyaviy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar shakllantiriladi. Keyingi bosqichda ular raqamli texnologiyalar yordamida qayta ishlanib, bankning kelgusidagi moliyaviy imkoniyatlari prognoz qilinadi. Yakuniy bosqichda esa dividend to‘lovlarining bir nechta muqobil variantlari shakllantirilib, ularning iqtisodiy samaradorligi baholanadi.

Dividend siyosatini intellektual boshqarishning iqtisodiy-matematik asoslariga to‘ztaladigan bo’lsak, dividend siyosatini boshqarish samaradorligini baholashda bir nechta moliyaviy ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq. 1.*Dividend to‘lovlari koeffitsiyenti*

$$\boldsymbol{DPR = \frac{D}{NP} * 100\%}$$

Bu yerda:

— D – jami dividend to‘lovlari;

— NP – sof foyda. Ushbu ko‘rsatkich bank sof foydasining qancha qismi dividend to‘lovlariga yo‘naltirilayotganini ifodalaydi.

2. Foydani reinvestitsiyalash koeffitsiyenti:

RR=1-DPR

Mazkur ko‘rsatkich sof foydaning dividend sifatida taqsimlanmay, bank ixtiyorida qoladigan qismini ifodalaydi. Bunda ko‘rsatkichlar ulush yoki foiz ko‘rinishida hisoblanishi mumkin.

3. *Dividend daromadliligi:*

$$\boldsymbol{DY = \frac{DPS}{P} * 100\%}$$

Bu yerda:

— DPS – bir dona aksiyaga to‘g‘ri keladigan dividend;

— P – aksiyaning bozor qiymati.

4. Kapital yetarliligi ko‘rsatkichi:

$$\boldsymbol{CAR = \frac{RC}{RWA} * 100\%}$$

Bu yerda:

— RC – regulyativ kapital;

— RWA – tavakkalchilik darajasi bo‘yicha tortilgan aktivlar.

Kapital yetarliligi ko‘rsatkichi dividend siyosatini belgilashda muhim cheklovlardan biri hisoblanadi. Chunki dividend to‘lovlari bank kapitalini kamaytirishi va kelgusida kreditlash imkoniyatlariga ta’sir qilishi mumkin.

6. *Intellektual dividend qarorini baholash indeksi.* Tadqiqot doirasida dividend siyosatini boshqarish samaradorligini kompleks baholash uchun mualliflik yondashuvi sifatida quyidagi integral indeksni taklif etish mumkin:

$$IDI = w_1K_1 + w_2K_2 + w_3K_3 + w_4K_4 + w_5K_5$$

Bu yerda:

— IDI – intellektual dividend boshqaruvi indeksi;
— K_1 – bank rentabelligi va foyda barqarorligi ko‘rsatkichi;
— K_2 – kapital yetarliligi ko‘rsatkichi;
— K_3 – likvidlilik holati ko‘rsatkichi;
— K_4 – dividend siyosatining barqarorligi ko‘rsatkichi;
— K_5– raqamli tahlil va boshqaruv tizimlarining rivojlanish darajasi;
— w_i – tegishli ko‘rsatkichlarning vazn koeffitsiyentlari.

Bunda:

$$\sum_{i=1}^{5} w_1 = 1$$

Indeksni hisoblashda barcha ko‘rsatkichlar oldindan yagona o‘lchovga keltirilishi, ularning yo‘nalishi va vaznlari ilmiy asosda belgilanishi lozim. Xususan, kapital yetarliligi va likvidlilik ko‘rsatkichlari normativ talablar bilan birgalikda baholanishi zarur.

Ushbu indeks banklar kesimida dividend siyosatini boshqarish samaradorligini taqqoslash, mavjud kamchiliklarni aniqlash va takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash uchun metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tijorat banklarida dividend siyosatini boshqarishning intellektual tizimlarini joriy etish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- dividend to‘lovlari bo‘yicha qarorlarni moliyaviy prognozlar asosida shakllantirish;
- bank kapitalini saqlash va ko‘paytirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- dividend to‘lovlari va reinvestitsiya o‘rtasidagi optimal nisbatni aniqlash;
- aksiyadorlar uchun axborot shaffofligini oshirish;
- moliyaviy risklarni oldindan aniqlash va baholash;
- bankning investitsion jozibadorligini mustahkamlash;
- dividend siyosatini bankning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi bilan muvofiqlashtirish.

Shu bilan birga, intellektual tizimlarni joriy etishda ma’lumotlar sifati, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, algoritmlarning xolisligi va inson nazoratini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratish zarur.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan nazariy va tahliliy o‘rganishlarimiz natijasida raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining dividend siyosatini boshqarish an’anaviy moliyaviy boshqaruv usullaridan kompleks raqamli va intellektual boshqaruv mexanizmlariga o‘tishni talab etishi aniqlandi. Tijorat banklarida dividend siyosatining samaradorligi faqat aksiyadorlarga to‘lanadigan dividendlar miqdori bilan emas, balki bankning kapital

barqarorligi, moliyaviy mustaqilligi, investitsion jozibadorligi va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlari bilan ham belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. Belloni M., Grodzicki M., Jarmuzek M. What makes banks adjust dividend payouts? // ECB Macroprudential Bulletin. – 2021. – No. 13.

2. Alhalabi T., Castro V., Wood J. Bank dividend payout policy and debt seniority: Evidence from US Banks // Financial Markets, Institutions & Instruments. – 2023. – Vol. 32. – P. 285–340. DOI: 10.1111/fmii.12183.

3. Gambacorta L., Oliviero T., Shin H.S. Low price-to-book ratios and bank dividend payouts: economic policy implications // Economic Policy. – 2023. – Vol. 38, Issue 115. – P. 675–701. DOI: 10.1093/epolic/eiad028.

4. Rawal A., Gopalkrishnan S. Impact of financial distress on the dividend policy of banks in India: evidence using panel data // Future Business Journal. – 2024. – Vol. 10. – Article 27. DOI: 10.1186/s43093-024-00310-y.

5. Herrmann H., Masawi B. Three and a half decades of artificial intelligence in banking, financial services, and insurance: A systematic evolutionary review // Strategic Change. – 2022. – Vol. 31, Issue 6. – P. 549–569. DOI: 10.1002/jsc.2525.

6. Temirov A. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2023. – № 9.

7. Abdiraxmonov, A. (2024). Tijorat banklari investitsion jozibadorligini oshirishda dividend siyosatining o'rni. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 2(11). https://doi.org/10.5281/zenodo.14380307

8. Sherkuziyeva N.A. Tijorat banklarida dividend siyosatining joriy holati // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – № 4. – B. 21–26. – DOI: 10.5281/zenodo.15465556

9. Abduraimova F. Tijorat banklarining kapital bazasini mustahkamlashda zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanishni takomillashtirish // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2026. – T. 4, № 9. – B. 173–179. – DOI: 10.5281/zenodo.22742044

10. Ubaydullayev , D. (2024). Tijorat banklari dividend siyosati va obligatsiyalar bo'yicha foiz siyosati tahlili. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 2(12). https://doi.org/10.5281/zenodo.15161825

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)